

**NUTQIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNING NUTQIY SIGNALLARINI QO'ZG'ATIB,  
BILISH JARAYONLARINI RIVOJLANTIRUVCHI TOPSHIRIQLAR**

**Abduxalilova Marjona**

*Nizomiy nomidagi TDPU Magistratura bo'limi Logopediya yo'nalishi birinchi  
bosqich magistri*

**Turatova Dilfuza Jumaboyevna**

*Sirdaryo viloyati Guliston shahar 15-sonli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim  
tashkiloti logoped-defektologi*

**Annotatsiya:** *Nutqida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarining nutqini rivojlantirish, tafakkuri, diqqatini o'stirish uchun bajariladigan topshiriqlar va metodik tavsiyalar va uni amalda qo'llash haqida so'z yuritiladi.*

**Kalit so'z:** *Nutqiy signallar, diqqat, tafakkur, AKT, ekran, nafas mashqlarini bajarish, kommunikativlik, manologik nutqda, diologik nutq.*

**DEVELOPMENT OF SPEECH AND THINKING OF CHILDREN WITH HEARING  
IMPAIRMENT**

**Annotation:** *Tasks and methodical recommendations for developing speech, thinking, and attention of students with speech impairments and their practical application are discussed.*

**Key words:** *Speech signals, attention, thinking, ICT, screen, performing breathing exercises, communicativeness, in manological speech, diological speech.*

Bugungi kun talabi xoh u sog'lom yoki imkoniyati cheklangan farzand bo'lsin, uni har tamonlama yetuk, har ishda ilg'or komil inson qilib tarbiyalashdir. Bu ulkan vazifani hal etish ta'lim-tarbiya jarayoni zimmasiga tushadi. Zamonamizning pedagoglari har sohada yetakchi, o'z ustida talabchan, mas'uliyatli, qolaversa, chuqur bilimga ega bo'lishi kerak. Ayniqsa, nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar, ularning psixologik ahvoli, o'zlashtirish imkoniyatlari va salohiyatini bilish, shunga qarab dars jarayonini tashkil etish o'qituvchidan katta mahorat va chuqur bilimni talab etadi. Shunga qaramay, pedagog bu borada yechim topa olishi va o'quvchilarga fanga bo'lgan qiziqishni o'stirishi kerak. Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqiy signallari va ijodiy faoliyatlarini qo'zg'atuvchi topshiriqlardan biri bu qo'l orqali bajariladigan topshiriqlar sanaladi. Qo'l harakati miya faoliyatiga kuchli ta'sir etib, nutqiy signallarini qo'zg'atadi. Qo'l harakatiga doir topshiriqlarni matematika darsida ham bajarish mumkin. Misol sifatida ko'rsatishimiz mumkin, 1 dan 10 gacha bo'lgan sonlarni qo'l harakatlari bilan ko'rsatib sanash, bu usul o'quvchilar uchun qiziqarli, qayta xotirlashga qaratilgan, qolaversa, nutqiy qo'zg'atuvchanlik ahamiyatlarini o'z ichiga oladi.

Qo'l harakatlariga doir mashqlarni dars jarayonida AKT ilovasida topshiriqlar harakatlari bilan ko'rsatilsa, maqsadga muvofiq sanaladi. *Qo'l harakatlarga doir turli topshiriqlarni bajarish:*

“Kapalak” mashqi. Qo'llarimizni kapalak harakatlangandek harakatga keltiramiz. Ekkranda kapalak rasmi va qo'lning kapalakdek harakatlanishi ko'rsatiladi.

Ekkranda yog'ayotgan yomg'ir va bulut tasviri, qo'l harakatida yomg'irning yog'ishi ko'rsatiladi.

“Qush” mashqi. Birgalikda qo'llarimizni uchayotgan qush kabi harakatga keltiramiz, deb aytiladi. Ekkranda qo'llarning qush kabi harakatlanishi ko'rsatiladi.

“Gul ochilishi”. “Qo'llarimizni gul ochilishi kabi harakatga keltiramiz”, – Ekkranda qo'l harakatlarida gulning ochilishi ko'rsatiladi.

“O'rgimchak” mashqi. Qo'llarimizni o'rgimchak harakatlangandek harakatga keltiramiz. Ekkranda o'rgimchak rasmi va qo'lning o'rgimchakdek harakatlanishi ko'rsatiladi.

Qo'l harakatlari bilan bajarilgan topshiriqlar nafaqat nutqiy signallarni qo'zg'atadi, qolaversa, tafakkurni rivojiga ham bir muncha ta'sir o'tkazadi. Bolada o'ziga ishonch, qat'iyatlilik xususiyatini shakllantiradi. Shu sabab, fan o'qituvchisi qo'l harakatlari bilan bajariladigan topshiriqlarini uyda farzandlar ota-ona bilan birgalikda bajarishlarini ham so'rashi mumkin. Bunda nafaqat ilmiy, harakatli topshiriqlar, qolaversa, bolaning yoshini inobatga olgan holda turli donli mahsulotlarni aralashtirib, uni ajratishlarini so'rashi mumkin. Bu topshiriq diqqat va sezgini o'stirish bilan bir qatorda, o'quvchida “men bajara olaman”, “meni ham qo'limdan keladi” kabi tushunchalarni hosil qilishga yordam beradi.

Qolaversa, nutqni rivojlantirish darslarida tashkiliy qismida “Nafas mashqlarini bajarish” o'quvchilarning diqqatini to'plashda, ularda kommunikativlik xususiyatlarini, yani nutqini o'stirishga yordam beradi.

Bu topshiriqni bajarish jarayoni ham AKT vositasi orqali ko'rsatilsa, o'quvchilar uchun qiziqarli va tushunarli bo'ladi.

Ekkranda logoped xonasi ko'rsatiladi. Logoped stoli ustida paxta, ruchka, barg, puflagich (o'yinchoq), bakal ichidagi puflagichi bilan qo'yilgan. Har bir buyum ustida bosilganda o'sha buyum bilan bog'liq topshiriqlar bajariladi:

Paxta: Paxtani puflaymiz: Bola paxtani qo'lga olib puflaydi, tovush bilan puflash jarayoni ko'rsatiladi: puf-puf-puf. (Mashq 5-6 marta takrorlanadi).

Ruchka: Ruchkani puflaymiz: Ekkranda stol va stul paydo bo'ladi, stol ustida ruchka bor. Bola stulga o'tiribdi. Bola ruchkani puflaydi. Puflash jarayoni tovushi bilan ko'rsatiladi: puf-puf-puf. (Mashq 5-6 marta takrorlanadi.)

Barg: Bargni puflaymiz: Ekkranda bola tasviri qo'lida barg: Barg puflanadi. Barg harakatlanib yerga tushadi. Bu mashq ham 5-6 marta takrorlanadi).

Puflagich: Puflagich o'yinchog'ini puflash: Ekkranda bola tasviri. Bolaning qo'lida puflagich o'yinchog'i. Bola puflagichni puflaydi. Puflagich harakatlanib aylanadi. (Mashq 5-6 marta takrorlanadi).

Bakaldagi suvni puflash: Ekranda stol va stul paydo bo'ladi. Bola stulga o'tiribdi. Stolda bakal va uni ichida puflagich bor. Bola bakaldagi suvni puflab sharikchalar hosil qiladi. (Mashq 5-6 marta takrorlanadi).

Nutq – bu so'zlashuv o'zaro muomala jarayoni, uning vositasi –so'zlardir. Manologik nutqda, diologik nutqda ham odam o'zidagi barcha so'zlar zaxirasidan foydalanilib, eng ta'sirchan so'zlarni topib, sherigiga ta'sir ko'rsatishni xohlaydi. Nutqida nuqsoni bor bola esa ko'pgina hollarda shu nuqsonini yashirishi natijasida muloqotda kirishishni istamaydi. Shu sabab ularning so'zlar zaxirasi kam, davragirlik xislatlari sust bo'ladi. O'zini chetga tortganligi sababli nutqi, bilish jarayonlari rivojlanish o'rniga susayadi. Turli hil tadbirlarga ham o'zlariga berilgan she'ni qiynalib aytishadi.

Shunday ekan, pedagog, logoped bolalarga har tomonlaman ko'maklashib suhbat jarayonida bola o'zini tashabbuskor etib his qilishi, ya'ni bola suxbatda o'zini asosiy rolda ekanligini sezishi kerak, buning uchun pedagog diologni shu maqsadda tuzishi lozim. Bolalarga turli yondashuvlar, topshiriqlar, metodikalar yordamida nutqiy signallarini qo'zg'atib, bilish jarayonlarini rivojlantirish logopedlarning oldiga qo'ygan asosiy vazifalaridan bo'lishi darkor.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Qodirova F.R, Qodirova R.M. "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. Toshkent. "Istiqlol" 2006.

2. Sharipova M.B, Nizomova SH.SH. " Bolalar nutqini o'stirish" maruzalar matni. Buxoro. 2019-2020 o'quv yili.

3. Babayeva D.R. "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi" o'quv- uslubiy majmua. Toshkent-2018.

4. Babayeva D. R. "Bolalar nutqini o'stirish nazariyasi va metodikasi". Toshkent " Barkamol fayz media". 2018.

5. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)

6. [www.defektolog.uz](http://www.defektolog.uz)